



NAFAQAT IJODIY, ILMIY HAMKORLIK HAM RIVOJLANADI

31 may kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkil etilgan S. A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya institutining "Ijodiy markazi"da ilk marotaba ikki institut rahbarlari hamda professor-o'qituvchilari o'rtasida onlayn videomuloqot bo'lib o'tdi.

Jonli muloqot jarayoniga O'zDSMI rektori Ibrohim Yuldashev, BKDI rektori V. Malishev, markaz direktori Iqbol Meliqo'ziyev, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha institut prorektori Go'zal Xalikulova, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Rixsitilla Ismoilov hamda oliy ta'lim muassasasining ijodkor, faol talaba-yoshlari ham ishtirok etishdi.



Har ikkala san'at muassasasi o'rtasidagi o'zaro aloqalar yaqin kelajakda ikki mamlakatning kino sanoatida o'z tasirini ko'rsatishi shubhasiz. Shularni inobatga olib, bugun oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi munosabatlar kun sayin rivoj topayotganligi ayni haqiqat. Onlayn muloqot jarayonida kelishuvga ko'ra navbatdagi o'quv davridan e'tiboran kino sohasidagi yetakchi mutaxassislar ishtirokida navbati bilan o'quv seminarlari, treninglar, qisqa muddatli hamda maqsadli mualliflik kurslari joriy eish, turli mahorat darslarini uyushtirish rejalashtirildi.



Shuningdek Ijodiy markaz faoliyatining ilk amaliy jarayonida 2019-2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bakalavriatining ixtisoslashgan yo'nalishlari iqtidorli bitiruvchilari uchun VGIK assistentura-stajirovkasida «Ijro etuvchi prodyuser», «Dramaturgiya» va «Audiovizual san'at rejissurasi» mutaxassisliklari bo'yicha o'qishlarni tashkil etish, 2019-2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining iqtidorli bitiruvchilarini hamda «Ijro etuvchi prodyuser» va «Kinorejissura va kinodramaturgiya» yo'nalishlari bo'yicha dastlabki saralashdan o'tgan bakalavr darajasiga ega milliy kinematografiya sohasining mutaxassislarini S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinematografiya davlat instituti qoshidagi «Kino va televideniye» oliy kurslariga o'qishga jalb etish, O'zDSMI da BKDI professor-o'qituvchilari tomonidan mahorat darslari, treninglar va mualliflik kurslarini o'tkazish vaqtini va tartibini belgilash, Yangi o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Kino-teleoperatorlik, Texnogen san'at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi), Rejissyorlik (televideniye va radio), San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash, San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini va magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari orasidan iqtidorlilarini saralab BKDI oliy kurslariga o'qishga yuborish, shu bilan birga keyingi o'quv yilidan boshlab O'zDSMI professor-o'qituvchilarini S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya institutiga bir oy (144 soat) muddatga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish kabi muhim masalalar muhokama qilindi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki O'zDSMI va BKDI o'rtasidagi kelishuvlar chinakamiga do'stona ko'rinishga keldi, desak xato bo'lmaydi. Bugun oliy ta'lim muassasalari nafaqat kadrlar tayyorlash masalasida balki ilmiy salohiyatlarini yuksaltirish borasida ham bir-birlariga ko'makdosh bo'lmoqdalar. Yaqin hamkorlik davrida ikki san'at muassasasi professor-o'qituvchilari o'rtasida ilmiy maqolalar

almashinuvini yo'ga qo'yish rejalashtirilgan.



Yana bir yangilik. Endi ushbu yoz mavsumidan boshlab institutimiz talabalari BKDI tomonidan tashkil etiladigan yozgi o'quv-dam olish oromgohlariga ham yuboriladigan bo'ldi. Bu O'zDSMI talabalari dam olish davrini xordiq chiqarish bilan birga chinakamiga tajriba orttirish, bilim olish uchun sarflashlari uchun imkoniyatdir.

Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy-ijodiy hamkorlik davom etadi.

0'zDSMI Axborot xizmati